# Beg‘ubor bolalik bayrami

Olam va odamning davomiyligi beg‘ubor bolalarning borligi bilan. Butun dunyoda bu haqiqat e’tirof etilgan. Bolalarni himoya qilish mazmuni tinchlik va osoyishtalikka ishoradir. Butun dunyoga tinchlik istagi o‘z-o‘zidan bolalarni himoya qilish ham demakdir.

1 - iyun kuni «Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni» - munosabati bilan 2-TTJda yashovchi talabalar bilan QSXEA fakultetining «ET va QTEM» kafedrasi o‘qituvchilari ma’naviy - ma’rifiy suhbat o‘tkazishdi.

Ushbu tadbirda o‘qituvchilar A.T. Sanbetova, N.T. Toshpo‘latov va boshqalar o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirib o‘tdilar. Tadbir erkin va ochiq muloqot tarzida bo‘lib o‘tdi, talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollar va takliflarini bildirib o‘tishdi.

Shuningdek, bunday ma’naviy ma’rifiy suhbatlar hamda tadbirlar  ko‘proq bo‘lishini so‘rab qolishdi.

**«ET va QTEM» kafedrasi assisstenti A.T. Sanbetova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**